

**Davlat soliq qo‘mitasi raisi o‘rinbosari J.Abdiyevning faoliyat ko‘rsatichlari bo‘yicha ma‘lumot**  
(*soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish, soliq solish metodologiyasi masalalari*)

01.02.2022 yil holatiga

t.r.	Asosiy mezonlar	Amalga oshirishlar ishlar yuzasidan qisqacha axborot
1.	Soliq majburiyatiga ega bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan soliq hisobotlarini topshirilishini monitoring qilib borish.	<p>2021-yil IV chorak va noyabr oyi uchun hisobot topshirish majburiyatiga ega bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz, foyda, aylanmadan olinadigan soliq, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq hisobotlarini taqdim qilinishi tahlil qilinganda quyidagilar aniqlandi.</p> <p><b>Aylanmadan olinadigan soliq</b> hisobotini respublika bo‘yicha <b>298,6 mingta</b> korxonaning <b>6,5 mingtasi (2,2%)</b> taqdim qilmagan.</p> <p>Hududlar kesimida <b>Toshkent shahar, Samarqand, Surxondaryo</b> viloyatlari va <b>Qoraqalpog‘iston</b> respublikasida ushbu hisobotni topshirilishi eng past darajani tashkil qiladi.</p> <p>Shuningdek, <b><u>Respublika bo‘yicha 32 ta tumanda hisobot topshirmagan korxonalar 3 foizdan ko‘pni tashkil qiladi.</u></b></p> <p>Jumladan, <b>Toshkent shahrida 8 ta</b> (<i>Chilonzor, Yunusobod, Yakkasaroy, Mirobod, Sirg‘ali, Yashnobod va Olmazor tumanlari</i>), <b>Samarqandda 6 ta</b> (<i>Payariq, Iштixon, Pastdarg‘om, Qo‘shrabot tumanlari hamda Kattaqo‘rg‘on va Samarqand shaharlari</i>), <b>Farg‘onada 5 ta</b> (<i>So‘x, Qo‘sh tepa, Furqat, Dang‘ara va O‘zbekiston tumanlari</i>), <b>Qoraqalpog‘iston Respublikasida 5 ta</b> (<i>Shumanay, Qo‘ng‘irot, Amudaryo tumanlari, Nukus shahar va Taxtako‘pir tumani</i>), <b>Surxondaryoda 4 ta</b> (<i>Termiz shahar, Sariosiyo, Qumqo‘rg‘on va Jarqo‘rg‘on tumanlari</i>), <b>Namanganda 3 ta</b> (<i>Namangan tumani, To‘raqo‘rg‘on va Kosonsoy tumanlari</i>), <b>Qashqadaryoda</b> (<i>Qarshi tumani</i>) <b>Toshkent viloyatida</b> (<i>Olmalik shahar</i>) <b>1 tadan</b> tuman va shaharlardan <b>hisobot topshirmagan korxonalar soni 3 foizdan ko‘p.</b></p>

t.r.	Asosiy mezonlar	Amalga oshirishlar ishlar yuzasidan qisqacha axborot
		<p>2021-yil IV chorak va noyabr oyi uchun <b>QQS bo'yicha</b> hisobot taqdim etilishi lozim bo'lgan <b>143,7 mingta</b> korxonadan <b>1,153 tasi (0,8%)</b> hisobot taqdim qilmagan.</p> <p>Jumladan, Qashqadaryo viloyatida 103 foiz (<b>11,6 mingtadan 103 tasi</b>), Qoraqalpog'iston Respublikasida 0,9 foiz (<b>6,1 mingtadan 52 tasi</b>), Samarqand viloyatida 0,8 foiz (<b>9,3 mingtadan 74 tasi</b>), Farg'ona viloyatida 0,8 foiz (<b>8,5 mingtadan 64 tasi</b>), Andijon viloyatida 0,8 foiz (<b>7,5 mingtadan 60 tasi</b>), Surxondaryo viloyatida 0,8 foiz (<b>6,7 mingtadan 55 tasi</b>) va Sirdaryo viloyatida 0,8 foiz (<b>2,3 mingtadan 19 tasi</b>) korxonalar QQS hisobotini taqdim qilmagan.</p> <p><b>Foyda solig'i bo'yicha</b> hisobot taqdim etilishi lozim bo'lgan <b>138,1 mingta</b> korxonadan <b>2,3 mingtasi (1,7 %)</b> hisobot taqdim qilmagan.</p> <p>Eng yomon ahvol Toshkent shahrida 3,1 foiz (<b>28,2 mingtadan 877 tasi</b>), Surxondaryo 2,4 foiz (<b>7,4 mingtadan 180 tasi</b>), Andijon 2,2 foiz (<b>8,8 mingtadan 190 tasi</b>) hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida 2,2 foiz (<b>7,2 mingtadan 161 tasi</b>) korxonalar foyda solig'i bo'yicha hisobot taqdim qilmagan.</p> <p>2021 yil <b>noyabr oyi</b> uchun <b>jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i</b> hisobotini topshirish majburiyatiga ega bo'lgan <b>420,6 mingta</b> yuridik shaxslardan <b>9,3 mingtasi (2,2 %)</b> hisobot taqdim qilmagan.</p> <p>Shuningdek, <b>Respublika bo'yicha 184 ta tuman va shaharlarda hisobot topshirmagan korxonalar 2 foizdan ko'proq tashkil qiladi.</b></p> <p>Jumladan, Toshkent viloyatida 21 ta, Farg'onada 19 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasida 12 ta, Andijonda 16 ta, Samarqandda 16 ta, Surxondaryoda 15 ta, Qashqadaryoda 14 ta, Buxoroda 13 ta, Namangan va Xorazm viloyatlarida 12 tadan,</p>

t.r.	Asosiy mezonlar	Amalga oshirishlar ishlar yuzasidan qisqacha axborot
		<p>Jizzax va Navoiy viloyatlarda 11 tadan, Toshkent shahrida 12 ta tuman va shaharlardan <b>hisobot topshirmagan korxonalar soni 2 foizdan ko'p.</b></p> <p>2021-yil noyabr oyi uchun <b>aksiz solig'i</b> bo'yicha hisobot taqdim etishi lozim bo'lgan <b>4,4 mingta</b> korxonadan <b>6 tasi (0,1%)</b> hisobotni taqdim qilmagan.</p> <p>Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida <b>306 tadan 5 tasi (1,6%)</b> va Toshkent ashahrida <b>231 ta</b> korxonadan <b>1 tasi (0,4%)</b> aksiz solig'i hisobotini taqdim etmagan.</p> <p>Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq hisobot taqdim etilishi lozim bo'lgan <b>1 909 ta</b> korxonadan <b>164 tasi (8,6%)</b> hisobot taqdim qilmagan.</p> <p>Eng yomon ahvol, Toshkent viloyatida <b>255 tadan 48 tasi (18,8%)</b>, Andijon va Jizzax viloyatlarida <b>96 tadan 13 tasi (13,5%)</b>, Surxondaryoda <b>143 tadan 16 tasi (11,2%)</b>, Qashqadaryo viloyatida <b>204 tadan 20 tasi (9,8%)</b>, Xorazm viloyatida <b>137 tadan 13 tasi (9,5%)</b> va Qoraqalpog'istonda <b>145 tadan 13 tasi (9%)</b> yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq hisobotini taqdim etmagan.</p>
2.	Soliq qonunchiligi normalarini bir xilda qo'llanilishini ta'minlash bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish.	<p>O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2021-yil 29-dekabrda O'RQ-741-son Qonuni bilan soliq qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirishlar va soliq imtiyozlari to'g'risida ommaviy axborot vositalarida yoritildi.</p> <p>Jumladan, ushbu Qonun bilan soliq qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirishlar bo'yicha Qo'mita tomonidan "O'zbekiston - 24" telekanalida va "O'zbekiston" radiosida chiqishlar qilindi.</p> <p>Shuningdek, qarorlar ijrosi yuzasidan Qo'mitaning ijtimoiy tarmoqlardagi (telegram, facebook, instagram, tviter) sahifalariga ma'lumotlar joylashtirildi.</p> <p>O'zbekiston Respublikasining "2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi 2021-yil 30-dekabrda O'RQ-742-son Qonunining mazmun va mohiyatini hamda unda belgilangan mahalliy davlat organlarining vakolatlari va majburiyatlarini</p>

t.r.	Asosiy mezonlar	Amalga oshirishlar ishlar yuzasidan qisqacha axborot
		<p>fuqarolarga, tadbirkorlik sub'ektlari vakillari, korxonalar va tashkilotlar rahbarlari hamda buxgalterlariga yetkazish bo'yicha Toshkent shahrida hamda Toshkent viloyatida seminarlar tashkil etildi.</p> <p>Ijtimoiy tarmoqlar orqali yo'llangan 82 ta savollarga tezkor javoblar tayyorlab, mualliflarga yetkazildi. Bundan tashqari, Qo'mitaga kelib tushgan 192 ta soliq to'lovchilarning murojaatlari ko'rib chiqilib, mualliflarga javob xatlari yuborilishi ta'minlandi.</p>
3.	O'zini o'zi band qilgan xodimlarni soliq organlarida hisobga olish.	<p>Aholini tadbirkorlikka yanada keng jalb qilish orqali o'zini o'zi band qilgan shaxslarni soliq organlarida hisobga olinishi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar natijasida o'tgan 2022-yil davomida <b>71,2 ming nafar</b> fuqarolar o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida soliq organlarida hisobga olinishi ta'minlandi.</p> <p>Jumladan, Ijtimoiy yo'nalishlar bo'yicha xizmatlar (<i>Uyda repetitorlik qilish, bolalarga qarab turish va ularni parvarish qilish, uy xo'jaligini yuritish, xonalarni tozalash, xalq tabobati, hamshiralik ishi</i>) <b>7,6 ming nafar</b>, Sanoat yo'nalishi bo'yicha xizmatlar (<i>Yog'och me'morchiligi, santexnika xizmati, elektr montaj ishlari, makulatura, plastik idish, temir tersak to'plash va qo'shimcha xomashyo to'plash</i>) <b>20,6 ming nafar</b>, Qishloq xo'jaligi yo'nalishi bo'yicha xizmatlar (<i>Chorva mollarini o'tlatish, ularni parvarish qilish, qishloq xo'jalik o'simliklarini ekish va parvarish qilishda tomorqa egalariga yordam berish</i>) <b>24,7 ming nafar</b>, Axborot kommunikatsiya yo'nalishi bo'yicha xizmatlar (<i>Ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat, dasturiy ta'minot, mobil ilovalar va veb saytlarni ishlab chiqish, matnni yaratish va ishlov berish</i>) <b>1,3 ming nafar</b>, Maishiy xizmatlar (<i>Sartaroshlik, manikyur, kosmetolog, pedikyur, uyda kir yuvish va dazmollash, kalitlar tayyorlash, poyabzal tikish, ta'mirlash va bo'yash xizmatlari</i>) <b>12,6 ming nafar</b>, Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish (<i>Non, uyda pop-korn, muzqaymoq, salatlar, salqin ichimliklar, ayron, go'ja hamda dehqon bozorlarisha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish</i>) <b>4,3 ming nafar</b> aholi bandligi ta'minlandi.</p> <p>Shuningdek, 2022 yilning 1-fevral holatiga <b>41,9 ming nafar</b> aholi tomonidan <b>11 006,2 mln.so'm</b> ijtimoiy soliq summasi to'lab berilgan.</p>

t.r.	Asosiy mezonlar	Amalga oshirishlar ishlar yuzasidan qisqacha axborot
4.	«ijro.gov.uz» ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali topshiriq va vazifalar ijrosining ta'minlanishi.	<p>O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun loyihasini (ID-49698) Adliya vazirligi bilan kelishish uchun yuborildi.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Transfert narxini belgilashda soliq nazorati va norezidentlarning soliq solish ma'muriyatchiligini takomillashtirish to'g'risida" qaror loyihasi (ID-29758) Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.</p> <p>"O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni loyihasini (ID-44057) Adliya vazirligidan huquqiy ekspertiza natijalari bo'yicha xulosasi olindi.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Soliq to'lovchilarni hisobga (ro'yxatga) olish sohasidagi davlat xizmatlarini ko'rsatishning ayrim ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori loyihasini (ID-22578) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi bilan kelishilgan holda Bosh vazirga imzoga kiritish uchun tayyorlandi.</p> <p>Vazirlar Mahkamasining "Qo'shilgan qiymat solig'i hamda chet el yuridik shaxslari bilan bog'liq soliq ma'murchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 14-avgustdagi 489-son qaroriga o'zgartirish kiritish haqidagi loyihani DSQ markaziy apparatida muhokama qilindi.</p>